

Atrof-muhit orqali ta'lim intizomli pozitsiya bo'lib, u bilim olishga yoki xulq-atvorni o'zgartirishga intilmaydi, lekin u "shaxsiy rivojlanish manbai bo'lgan atrof-muhitni jismoniy va hissiy jihatdan o'zlashtirishga" qaratilgan.

Sayyoramizni himoya qilish barcha avlodlarga tegishlidir. Binobarin oqsoqollarning roli esa yoshlarni ekologik sabablar haqida xabardor qilishdan iboratdir. Xoh maktabda, xoh uyda, xoh universitetda hozir yoshlar bilan ekologiya haqida suhbatlashish dolzarb masaladir.

Yoshlikdan yaxshi amallarni o'tkazish va xabardorlikni oshirish bolalarga sayyorani asrash muhimligini tushunish imkonini beradi. Qiziqarli vositalar va ozgina tasavvur tufayli yoshlarning ekologik tarbiyasi shakllantirish har bir pedogogning asosiy vazifasi bo'lib qolishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamasoliyeva Gulchexra Abdukhaliyovna. Comparative phonetics of French and Uzbek sounds (as example of French and Uzbek languages) - Евразийский научный журнал, 2020
2. Abdukhaliyovna, M. G. (2023). Importance of modern pedagogical technologies in teaching phonetics in higher educational institutions. *Journal of language and linguistics*, 6(4), 243-247.
3. Abduhalilovna, M. G., & Yèche, H. (2023). Accent in french and its role in speech. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(9), 125-128.

OLIY TA'LIM MUASSASALARDA LABORATORIYA VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI YUKLAMASINI OSHIRISH ORQALI EKOLOGIK MUAMMOLARNI KELIB CHIQUISH VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARINI O'RGANISH

*Sultanov A.I., Xalilov Olimjon
sultanovazizbek45@gmail.com
Jizzax politexnika instituti*

Bugungi kunda mamlakatimizda bir nacha yuzdan ortiq oliy ta'lim muassasalari yetuk oliy malumotli kadrlar tayyorlab kelmoqda. Bu oliygohlarni ichidaqator texnika yo'nalishlarida kadrlar tayyorlab kelayotgan oliygohlarda talabalarga to'rt yil davomida ijtimoiy gumanitar hamda mutaxassislik fanlardan ta'lim olib kelmoqdalar. Bugungi kunda butun dunyo oldidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelayotgan ekologik muammoni kelib chiqish sabablari va uni oldini olish chora tadbirlari bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunda ekologik muammolarni oldini olish va qo'shimcha choralar ishlab chiqish uchun bilim, ko'nikma, izlanish va tajribalar kerak bo'ladi. Shunday ekan bunday izlanishlarni amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari o'qib bilim olib kelayotgan yosh tadqiqotchi, olimlarni kashf qilish uchun oliy ta'lim muassasasi o'quv dasturidagi fanlarga amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari yuklamasini oshirish kerak sababi talabalar aynan mutaxassislik sohasida qanday muammolar borligi uni atrof- muhitga salbiy tasiri miqdori to'g'risida ma'lumotni amaliy yoki laboratoriya mashg'uloti darsida tajriba davomida ko'z bilan ko'rib sabablarini o'rganmaguncha ularda fanga sohaga qiqish bo'lmasligi mumkin.

Misol uchun; O'rganish natijalariga ko'ra, 20 daqiqa davomida "chuqur" oldidagi tiqilinchda 142 ta avtomobil 2,257 kg (taxminan 16 g/avtomobil), 500 m uchastkadagi 20 daqiqa davomida harakatlanayotgan avtomobillardan esa 20 000 baravar kam zararli moddalar chiqargan. Yo'lning holati atmosfera havosining holatiga malakali "sozlash" va ichki yonuv dvigatellarining to'g'ri ishlashidan kam bo'lmagan ta'sir ko'rsatadi [1].

Shu bois shahar sharoitida avtomobillarning harakatlanish va svetoforda to'xtab turish vaqtlarini optimal rejalashtirish lozim bo'ladi. Buning uchun transport vositasini bir chorahadan keyingi chorahagacha bo'lgan oraliqdagi harakatlanish vaqtini svetoforning yashil chirog'i yonishiga sinxronlash talab etiladi. Shunda avtomobilni chorahalardan qisman to'xtamay o'tishini kamayishi hisobiga salt ishlash rejimida turishini kamaytirishga erishish mumkin.

Natijada, atrof-muhitga chiqariladigan zaharli chiqindilar miqdori minimal bo'ladi. Majburiy salt ishlash rejimi va dvigatel bilan tormozlash avtomobil harakati umumiy vaqtining 20 foizini tashkil qiladi. Bu rejimlarda karburatorli dvigatelning kiritish quvurlarida katta siyraklanish hosil bo'ladi, yonish jarayoni yomonlashadi, natijada sikllarning 90 foizida umuman yonish bo'lmaydi va dvigatel noto'rg'i ishlaydi, ishlatilgan gazlarning zaharliligi bir necha marta ortib ketadi. Bundan tashqari, katta siyraklanish natijasida karter moyining yonish kamerasiga ko'plab o'tishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida qurum hosil bo'lishiga va dvigatelning tutun chiqarib ishlashiga olib keladi [2].

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni yo'qotishning eng qulay usullarida biri dvigatelning kiritish quvurini atmosfera bilan maxsus siyraklanishni cheklagich deb ataluvchi klapan orqali bog'lash va ekonomayzer orqali yonilg'i berishni to'xtatishdir. Bunday cheklagich siyraklanishning kamayishiga qaramasdan klapaning keskin ochilishini va ochiq holatda bo'lishini ta'minlashi kerak [3]. Markaziy salt ishlash ekonomayzerining elektron boshqarish tizimi dvigatel majburiy salt ishlaganda yonilg'ini uzatilishini to'xtatish uchun xizmat qiladi. Bu tizim joriy qilinishi yonilg'ini 2–3 foizga tejash va chiqindi gazlardagi zaharli moddalar miqdorini 15–30 foizga kamaytirish imkoniyatini beradi.

Avtomobillarni shahar sharoitida kuzatish natijalariga ko'ra, ular tekis harakat qilishi uchun 15–25 foiz, harakat tezlanishini olishi uchun 30–45 foiz, harakat sekinlashishi va salt yurish uchun esa 30–40 foiz vaqtini sarflaydi. Shahar sharoitida avtobus dvigatellari uchun salt ishlash rejimi umumiy ish vaqtining 30% ni tashkil qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, atmosferaga avtomobil transporti chiqindilari uglerod oksidi uchun 90 foizgacha va azot oksidi uchun 70 foizni tashkil qiladi. Birlik maydoniga eng ko'p avtomobillar to'g'ri keladigan ba'zi yirik shaharlarda atmosferadagi zararli moddalar miqdori inson salomatligi uchun xavfli konsentratsiyaga yetgan. Biroq, muammoning jiddiyligini kamaytirishning boshqa usullari ham mavjud. Agar svetoforda to'xtash vaqtida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ACS) dvigatelni 12 daqiqaga o'chirsa, yonilg'i sarfi 10-15 foizga, zararli moddalar chiqindilari esa 10-20 foizga kamayishi mumkin. Bundan tashqari, shovqin effekti kamayadi berilib kelmoqda.

Xulosa. Shu kabi ekologik muammolarni o'rganish uchun talabalar amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarini ko'proq dars yuklamasini oshirish va laboratoriya jihozlarini tashkil etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sultanov, A.I., Sultanova, D.U. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarda shakllantiriladigan kasbiy kompetentsiyalar va ularning turlari. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(15), 480–482.
2. Sultanova, D.U. (2024). Tabiiy gazdan foydalanish va ichki yonuv dvigatellarida chiqindi gazlarning zaxarliligini kamaytirish. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(2), 535-537.
3. Sultanov, A.I., Sultanova, D.U. (2023). Yonilg'i ta'minot tizimidagi nosozliklar va injektorning ishdan chiqish sabablari. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(18), 302–304.

OLIV TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING EKOLOGIK MUAMMOLARGA BO'LGAN MUNOSABATINI OSHIRISH

Uzaqova Odinaxon Moxirjon qizi, Jumaboyeva Mahdiya Dilshodbek qizi
uzakovaodinakhon@gmail.com, totyoxinхоjimatova@gmail.com
Central Asian Medical University

Ekologiyalashtirish – bugungi kunda butun dunyo bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shubhasiz, dunyo aholisining salomatligi, ularning har qaysi sohada amalaga oshirishi mumkin bo'lgan islohatlari, biznes, sanoat, qishloq xo'jaligi,